

РЕЗЮМЕ. Мақолада Марказий Осиё минтақасидаги экологик вазият кўриб чиқилиб, экологик муаммолар муҳим аҳамият касб этиши таъкидланди. Ўзбекистон ва қўшни мамлакатларда сув ресурсларидан фойдаланиш бўйича таҳлилий шарҳ ўтказилди ва минтақадаги дарёларнинг шаклланиши асосан тоғли қисмида, ёғингарчилик буғланиш туфайли суғориш ва бошқа ҳолатлар учун фойдаланиши қайд этилган. Сув ресурсларининг республикада йил сайин камайиши, минтақа сув стресси ва унинг (сув) танқислиги юқори бўлган мамлакатлар гуруҳига киритилган.

РЕЗЮМЕ. В статье рассматривается экологическая ситуация в Центральноазиатском регионе и подчеркивается важность экологических проблем. Был проведен аналитический обзор использования водных ресурсов в Узбекистане и соседних странах, и было отмечено, что формирование рек в регионе происходит преимущественно в горной части, где осадки используются для орошения и других целей из-за испарения. Ежегодное сокращение водных ресурсов в республике, регион относится к группе стран с высоким водным стрессом и его (водной) нехваткой.

SUMMARY. This article examines the ecological situation in the Central Asian region and emphasizes the importance of environmental problems. An analytical review of the use of water resources in Uzbekistan and neighboring countries was conducted, and it was noted that the formation of rivers in the region occurs mainly in the mountainous part, where precipitation is used for irrigation and other purposes due to evaporation. Annual decrease in water resources in the republic, the region belongs to the group of countries with high water stress and its (water) shortage.

TOSHKENT VILOYATIDA MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARINI TASHKIL ETISHDA DEMOGRAFIK OMILNING ROLI

Z.Tojiyeva – *geografiya fanlari doktori, professor*

O'zbekiston milliy universiteti

M.Sabirova – *geografiya fanlari bo'yicha falsafa doktori*

Alfraganus universiteti

D.Ruzmanova – *tayanch doktorant*

Z.Saidova – *o'qituvchi*

K.Omanova – *o'qituvchi*

O'zbekiston milliy universiteti

Tayanch so'zlar: maktabgacha ta'lim tashkilotlari, bola soni, 3-7 yoshli bolalar, qamrov, aholi, talab, hududiy, ijtimoiy, hudud, davlat

Ключевые слова: дошкольные образовательные учреждения, численность детей, дети 3-7 лет, охват, численность населения, потребность, территориальная, социальная, территория, государство.

Key words: pre-school educational institutions, number of children, children 3-7 years old, coverage, population, need, territorial, social, territory, state.

Kirish. Toshkent viloyati respublikadagi iqtisodiy ijtimoiy rivojlanishdagi yetakchi viloyatdan biri sanaladi. Buning asosiy sabablari esa dastlab poytaxt shahar bo'lganligi hamda, resurs potensialining yuqoriligi va demografik vaziyatning barqarorligi, malakali mutaxassislarning yetarli ekanligi, infratuzilmaning yaxshi rivojlanganligini sanab o'tish mumkin.

Viloyatda xizmat ko'rsatish sohalarini yaxshi rivojlangan. Ayniqsa ta'lim xizmatlari yaxshi rivojlangan. Aholiga xizmat ko'rsatish sohalarining tarkibiga ta'lim sohasida alohida o'rin tutib, u bir nechta bo'g'inlardan iboratdir. Eng dastlabki bo'g'ini esa maktabgacha ta'lim tizimidir. Viloyat maktabgacha ta'lim tashkilotlarining qamrovi bo'yicha bir muncha quyi o'rinni band etgan bo'lib, qamrov darajasi 66,5 foizni tashkil etmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 10-iyundagi "Qamrov darajasi past bo'lgan tumanlarda maktabgacha ta'lim tashkilotlarining tarmog'ini kengaytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5144-sonli Qaroriga muvofiq qamrov darajasi past tumanlar sifatida Toshkent viloyatidan Bekobod, Bo'ka, Oqqo'rg'on, Piskent, O'rta Chirchiq, Yuqori Chirchiq, Yangiyo'l tumanlari kiritilgan. Bundan ko'rinib turibdiki, Toshkent viloyatidagi maktabgacha ta'lim tashkilotlarini hududiy tashkil etish va ularning dinamikasini o'rganish katta ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Aholi bilan ko'plab tadqiqotlarning olib borilishi natijasida rasman 1976-yildan boshlab, Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fani

sifatida talqin etila boshlandi. Fanning keyingi bosqichda rivojlanishida aholi, xizmat ko'rsatish sohalarini doirasida tadqiqotlar olib borildi. Ijtimoiy sohalar va xususan xizmat ko'rsatish sohalarini tadqiq etish ishlari M.A.Abramov [3] tomonidan amalga oshirilgan. Yurtimizda ushbu sohada Z.N.Tojiyeva, K.B.Omanova kabi olimlarning ishlari mavjud [4, 5].

O'zbekistonda ushbu sohaning tarixiy va hududiy rivojlanishi qanday holatda yuz berdi. O'zbekistonda maktabgacha ta'lim vazirligi 2017-yilga kelib alohida vazirlik sifatida faoliyatini boshladi. Bu holat esa ayni davr uchun dunyoda boshqa analogga ega bo'lmagan vazirlik sifatida e'tirof etildi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining joylashuvini baholashda turk olimlari M.Kyose, M.Ko'chuyigit, K.Erdem geografik axborot tizimlari yordamida maktabgacha ta'lim tashkilotlarini istiqbolli rejalarini joylashtirish masalalarini ko'rib chiqqanlar. Tadqiqot natijalariga ko'ra, maktabgacha ta'lim tashkilotlarining alternativ joylashuvini taqdim etish orqali har bir uydan muassasagacha 626.82 mgacha masofa qisqartirilib bu oqibatida muassasaga qatnov va qulaylik darajasi ortgan [2]. Ushbu tadqiqotda Corine land use tomonidan modellashirilgan hamda dassimmetrik kartalashtirish usulidan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Maktabgacha ta'lim muassasasi (MTM)-bolalarni jamiyatda yashashga o'rgatuvchi dastlabki ijtimoiy institut. Bu muassasada bolaning

boshqalar bilan birinchi mustaqil aloqalari sodir bo‘ladi va bu yerda odamlar bilan muloqot qilishni o‘rganadi.

Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarining hududiy tashkil etilishiga ta‘sir ko‘rsatuvchi omillardan va asosiysi bu – tug‘ilish bo‘lib ayni xizmat turining yosh bo‘yicha qamrov darajasi 3-7 yosh bo‘lganligi uchun ham bu tug‘ilishning ahamiyati katta.

Undan so‘ng go‘daklar o‘limini ham hisoblanib, kelajakda tashkil etiladigan maktabgacha ta‘lim tashkilotlarining soni bevosita shu ikki ko‘rsatkich asosida belgilab beriladi [1].

1-jadval. Toshkent viloyatida tug‘ilish koeffitsiyenti darajasi bo‘yicha tumanlarning guruhlanishi

№	Guruh nomlari	Tug‘ilish koeffitsiyenti miqdori	Tuman nomlari
1	Eng yuqori	24-25,5	Toshkent, Zangiota, Oqqo‘rg‘on
2	Yuqori	22,5-24	Chinoz, Quyi Chirchiq, Ohangaron
3	O‘rta	22,4-24	Piskent, Parkent, Bo‘ka, Bekobod, Qibray, Yuqori Chirchiq
4	Past	18-20,5	Bo‘stonliq, Yangiyo‘l, O‘rta Chirchiq

Jadval statistik ma‘lumotlar asosida muallif tomonidan tuzildi.

Yuqoridagi jadvaldan ko‘rinib turibdiki, tug‘ilish darajasi (2023) yuqori saqlanib qolayotgan tumanlar qishloq tumanlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda. Bunda Zangiota tumanini tahlil qilsak, 2022-yilga nisbatan 2 promillega kamaygan, ammo shunday bo‘lsa ham viloyatda yetakchi o‘rinda qolmoqda. Oqqo‘rg‘on, Ohangaron tumanlarida esa 2022-yilga nisbatan 0,2- 0,4 promillega o‘shish qayd etilmoqda. Parkent tumani turg‘unlikni ushlab turibdi. Tug‘ilishning keskin kamayishi esa Qibray tumanida 3,2 promillega, Piskent tumanida 2 promillega, Yangiyo‘l tumanida esa 5,3 promillega kamaygan. Tug‘ilish koeffitsiyenti bo‘yicha ijobiy natija faqatgina Toshkent viloyatida qayd etilgan.

Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarini tashkil etishda aholi soni muhim hisoblanar ekan, bunda albatta aholining tabiiy harakatiga ham ahamiyat berish zarur. Migratsiya saldosi bo‘yicha ham 1576 kishiga Toshkent tumani yetakchilik qilmoqda (2023). Bunda o‘tgan davrga nisbatan 150 kishiga ko‘paygan. Keyingi o‘rinda Zangiota tumani 1372 kishiga ko‘paygan. Ahamiyatli jihati shundan iboratki, bundan oldingi davrda Zangiota tumanida migratsiya saldosi -3798 kishi bo‘lgan. Bunda oxirgi paytda yaratilayotgan ish o‘rinlari, uy-joy kommunal tizimda bo‘layotgan o‘zgarishlar bilan bog‘lash mumkin. Eng past ko‘rsatkich esa Bo‘stonliq tumaniga tegishli bo‘lib – 1192 kishiga kamaygan. Bu hududda ham tug‘ilish darajasining tushishi

ham migratsiya saldosi manfiy ekanligi ma‘lum yerdagi maktabgacha ta‘lim tashkilotlari sonining kamayishiga olib keladi va tog‘li tuman bo‘lganligi sababli mavsumiy bandlik sabab migratsiya oqimi kuchayganligini keltirib o‘tish o‘rinli.

2-jadval. Toshkent viloyatida aholi zich joylashgan hududlar

№	Hududning nomi	Aholi soni (ming kishi)	Urbanizatsiya darajasi (% da)	MTTlar soni (ta)
1	Yangiyo‘l	196,9	14.2	91
2	Toshkent	192,8	45	120
3	Bo‘stonliq	175,3	56	72
4	Parkent	175,2	50	174
5	Piskent	101.8	45	55
6	Ohangaron	109.2	21	117
7	Oqqo‘rg‘on	110.2	23	139
8	Angren sh.	178.5	100	194
9	Chirchiq sh.	168.0	100	56

Jadval statistik ma‘lumotlar asosida muallif tomonidan tuzildi

Ushbu jadvalda aholi soni ko‘p bo‘lgan hududlar keltirib o‘tilgan bo‘lib bunda aholi soni ko‘p bo‘lgan Yangiyo‘l tumanida 91 ta maktabgacha ta‘lim tashkiloti bo‘lsa, Toshkent tumanida aholi soni Yangiyo‘l tumaniga nisbatan 4 ming kishiga kam bo‘lsada maktabgacha ta‘lim tashkilotlari (MTT) soni deyarli 30 taga ko‘p. Qishloq tumanlari orasida Parkent va Oqqo‘rg‘on tumanlari yetakchilik qilmoqda buni albatta tug‘ilish darajasi bilan bog‘lash mumkin. Tug‘ilishga mos ravishda maktabgacha ta‘lim tashkilotlariga bo‘lgan ehtiyojni qondirish maqsadida ko‘plab MTTlar tashkil etilmoqda.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, zamonaviy qarashlarda maktabgacha ta‘lim tashkilotlari qulay joylashuvga ega bo‘lishi lozim pabda tabiat bilan uyg‘unlikda bo‘lishi kerak, degan fikrlar bildirilmoqda. Bu esa bolalarda ekologik ta‘limni shakllantiradi [5]. Olimlar tomonidan maktabgacha ta‘lim tashkilotlarini joylashtirishda bir qancha metodlar ishlab chiqilgan. Yurtimizdagi so‘nggi jarayonlar sohaga diqqat e‘tibor qaratilayotgani bolalarning bog‘chalar qamrovining oshganligidan ko‘rishimiz mumkin. Bunda xususiyl sektorga keng imkoniyatlar berilayotgani alohida ahamiyat kasb etadi. Bunda davlat sherikchilik asosidagi maktabgacha ta‘lim tashkilotlarining ommalashishi ham xususiyl tadbirkorga, ham davlatga manfaatli bo‘lgani muhim jihatdir. So‘nggi paytlarda qonunga kam ta‘minlangan oilalarning farzandlarini bog‘cha to‘lovidan ozod qilish masalalari ko‘rib chiqilmoqda. Agar ushbu qonun kuchga kirs, bu yanada maktabgacha ta‘lim tashkilotlarining qamrovini oshirishiga katta imkoniyatlardan biri bo‘lib qoladi.

Adabiyotlar

1. Bakurova O.V., Rysaeva I.A. An integrated approach to the organization of kindergartens territory. // 3C TIC. Cuadernos de desarrollo aplicados a las TIC. Special Issue, October 2019. – P. 219-231.
2. Kyose M., Ko‘chyigit M., Erdem K. // Kuramasal Egibtibiril Dergisi. 16 (2) 2023. – P. 352-371.
3. Абрамов М. А. География сервиса. – Москва: 1989.
4. Tojiyeva Z.N., Omanova K.B. Mehnat migratsiyasini tadqiq etishning hududiy masalalari. “Milliy iqtisodiyotni isloh qilish va barqaror rivojlantirish istiqbollari” mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi. 2024-yil 24-oktyabr. 549-552-b.
5. Tojiyeva Z.N., Omanova K.B. O‘zbekiston Respublikasi qishloq aholisida demografik o‘tish davri. // O‘zbekiston milliy universiteti xabarlari. Ilmiy jurnal. – Toshkent, 2025, [3/1]. 187-190-b.

REZYUME. Maqolada Toshkent viloyatida tashkil etilgan maktabgacha ta'lim tashkilotlarining tashkil etilishida demografik holatning o'zgarishi bilan bog'liq masalalar ko'rib chiqilgan. Toshkent viloyatidagi demografik vaziyat muammo va yechimlar keltirib o'tilgan.

РЕЗЮМЕ. В статье рассмотрены вопросы, связанные с изменением демографической ситуации в организации дошкольных образовательных организаций, созданных в Ташкентской области. Представлена демографическая ситуация в Ташкентской области, проблемы и пути их решения.

SUMMARY. This article discusses issues related to changes in the demographic situation in the organization of pre-school educational organizations created in the Tashkent region. The demographic situation in the Tashkent region, problems and ways to solve them are presented.

QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMINING TASHKILLASHTIRILISHI VA HUDUDIY JOYLASHUVIDAGI TAFOVUTLAR

K.K.Uzakbaev – *geografiya fanlari bo'yicha falsafa doktori*

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Tayanch so'zlar: aholiga xizmat ko'rsatish, maktabgacha ta'lim, bolalar soni, maktabgacha ta'lim tashkilotlari, xizmat ko'rsatish radiusi, shaharsozlik normalari va qoidalar.


Ключевые слова: обслуживания населения, дошкольное образование, количество детей, дошкольные образовательные организации, радиус обслуживания, градостроительные нормы и правила

Key words: public services, preschool education, number of children, preschool educational organizations, service radius, urban planning norms and rules

Kirish. Har bir mamlakat, mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida uning ta'lim tizimi alohida mavqega ega. Chunki, mamlakat istiqboli, yosh avlod kelajagi, ularning intellektual salohiyati bevosita ta'lim tizimiga bog'liq. Bizning mamlakatimizda olib borilayotgan siyosat ham, davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilayotgan asosiy maqsadlaridan biri ham aynan shu masalalarga qaratilgan. Yurtimizda mutlaqo yangi mazmun va shakldagi zamonaviy ta'lim muassasalar tizimini yaratish bo'yicha davlat dasturlari ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish masalalariga katta e'tibor qaratilmoqda [1:226]. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni 1-ilova «IV. Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish» bo'limi 37-49 maqsadlarining barchasida respublikamiz hududlarida ta'lim tizimini jadal rivojlantirish bo'yicha aniq maqsad va vazifalar belgilangan [1].

Ta'lim tizimining ilk bosqichi maktabgacha ta'lim va tarbiya hisoblanadi. Ta'limning mazkur bo'g'ini bolalarni o'qitish va tarbiyalashga, ularni intellektual, ma'naviy-axloqiy, etik, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek, bolalarni umumiy o'rta ta'limga tayyorlashga qaratilgan ta'lim turidir. Shuningdek, maktabgacha ta'lim va tarbiya olti yoshdan yetti yoshgacha bo'lgan bolalarni boshlang'ich ta'limga bir yillik majburiy tayyorlashni ham nazarda tutadi.

Asosiy qism. Qoraqalpog'istonda 2023-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, 546 ta maktabgacha ta'lim tashkilotlari (MTT) mavjud. 2010-yilda ularning soni 332 ta bo'lgan, demak, o'tgan 13 yil mobaynida 214 taga, yiliga o'rta hisobda 16 tadan ko'payib borgan. Respublika jami MTTlarning 18 % i (98 tasi) nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlariga to'g'ri keladi. Nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarining soni ham so'nggi yillarda tez ko'paymoqda. Masalan, bunday turdagi tashkilotlar 2018-yilda 27 ta, 2020-yilda 82 ta, 2023-yilda esa 98 tani tashkil qilgan.



1-rasm. Qoraqalpog'iston Respublikasida MTT larning soni (2010 va 2022-yillarda)

Rasm Qoraqalpog'iston Respublikasi Statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Qoraqalpog'istonda 2023-yilning boshi holatiga ko'ra, MTTlar soni bo'yicha Nukus shahri (81 ta), Beruniy (61 ta), Amudaryo (55 ta), To'rtko'l (44 ta) tumanlari oldingi o'rinda turadi. Eng kam soni esa Bo'zator (8 ta) va Shumanay (13 ta) tumanlariga to'g'ri keladi (2.9-rasm). Nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari soni bo'yicha Nukus shahri peshqadamlik qiladi, unga 21 ta, Qo'ng'iro't tumaniga 11 ta va To'rtko'l va Ellikqala tumanlarining har biriga 10 tadan mos keladi. Shumanayda 1 ta, Mo'ynoq va Qorao'zak tumanlarida 2 tadan mavjud (1-rasm).

Mavjud MTTlarda o'rinlar soni respublika bo'yicha 73,8 mingtaga teng, yoki o'rta hisobda bitta MTTga 135 tadan mos kelgan. O'rinlar soni ham keyingi yillarda ortib bormoqda (2018-yilda ular 50,9 mingta bo'lgan). Nukus shahrida o'rinlar soni 15,6 mingta, Qo'ng'iro't tumanida 7,6 mingta, Beruniy, To'rtko'l va Amudaryo tumanlarida 5,3-6,7 ming atrofida. Bo'zator tumanidagi 8 ta MTTning o'rinlar soni 700 ta atrofida.

Qoraqalpog'istonda 3-6 yoshdagi bolalarning maktabgacha ta'lim bilan qamrab olinishi 79,7 % teng (respublika bo'yicha o'rtacha ko'rsatkich 62,0 % tashkil qiladi). Bu borada mintqa respublika hududlari orasida peshqadam hisoblanadi (2-rasm).